



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QO'SHMA OTLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi stajyor-o'qituvchisi Ergashova D.Sh.

Qo'shma otlarning umumiy xususiyatlarini aniqlashdan avval, uning so'z birikmasidan farqini aniqlab olishimiz zarur. Qo'shma so'z va so'z birikmasini farqlash murakkab bo'lishiga qaramay, tilshunoslikda bu borada talaygina ishlar olib borilgan. Shulardan biri O.S.Axmanovaning "So'z bilan so'z birikmasini farqlash haqida"gi doktorlik dissertatsiyasi hamda N.E.Yuldashevanning "Ingliz va ozbek tillaridagi qo'shma otlarning funksional-pragmatik tadqiqi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasidir.

Qo'shma so'zlarni so'z birikmasidan farqlashda semantik, grammatik (ma'no va shakl) belgi bilan bir qatorda fonetik belgiga ham asoslaniladi. [1] Qo'shma so'zlarning xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, ular bir asosiy urg'uga bo'ysunadi va u oxirgi elementning so'nggi bo'g'inida bo'ladi. So'z birikmasi tarkibidagi har bir so'z urg'uli bo'ladi.

Ingliz tilida biriktiruvchi urg'uning borligini yaxlitlikning aniq ko'rsatuvchi xususiyatlaridan deb hisoblash mumkin: 'bluebell (qiyoslang: 'blue 'bell), 'blackboard (qiyoslang: 'black 'board).

Yana bundan tashqari qo'shma so'zlarda ikkinchi darajali urg'u ham uchrashi mumkin. Bunday holatlarda ikkinchi darajali urg'u birinchi elementning oxirgi bo'g'inida bo'ladi va kuchsiz eshitiladi. Ingliz tilidagi ba'zi bir holatlarda ikkinchi elementda fonetik kuchsizlanish kuzatiladi, ya'ni ko'rsatilgan so'zda soddalashuv jarayoni yuz beradi ('cupboard amer. | 'kʌbərd | va brit. | 'kʌbəd |).

Soddalashuv chegarasida turgan bunday so'zlar soddalashuv jarayoni qo'shma so'z qismlarini to'la ajralmasligiga olib kelmaguncha qo'shma so'zga aloqador bo'lishi mumkin. Qiyoslang: lord so'zi qadimgi ingliz tilida hlaf-weard "g'alla qo'riqchisi" ma'nosida ishlatilgan. [2]

Qo'shma so'zlar masalasi o'zbek tilshunosligidagina emas, umuman turkologiyada kam o'rganilgan sohalardan biridir. Qo'shma so'zlarga bag'ishlangan ishlarda qo'shma so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning sodda so'z va so'z birikmalaridan farqi to'la ochib berilmagan. Shuningdek, adabiyotlarda qo'shma so'zlarning ta'rifi, ularning xususiyatlari haqidagi fikrlarning turlichaligi bu mavzuni o'rganishni murakkablashtiradi. Qo'shma so'zlarga oid adabiyotlarning ko'pchiligidagi juft so'zlar ham qo'shma so'zlar qatoriga kiritiladi. Agar biz qo'shma so'zlarning paydo bo'lish tarixiga nazar tashlasak, ularning aslida grammatik munosabatga ega bo'lgan so'z birikmalari ekanligini ko'ramiz. Qo'shma so'zlar tarixan so'z birikmalaridan o'sib chiqqan.

Til taraqqiyoti jarayonida so‘z birikmasi qismlarining ma’no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo‘qolishi hamda ularning bir ma’no markaziga birlashishi natijasida qo‘shma so‘zga aylanadi. [2]

Qo‘shma otlarning so‘z birikmasidan farqi

Qo‘shma so‘z	So‘z birikmasi
Til birligi- o‘zi tayyor holda, o‘zgarmaydi	Nutq birligi- nutq jarayonida o‘zgarishi mumkin
Semantik yaxlitlik- leksik ma’no bor	Har bir so‘z o‘z semantic ma’nosiga ega
Gapda bitta sintaktik funksiya bajaradi	Qismlari gapda alohida-alohida vazifa bajaradi
Idiomatik bo‘lishi mumkin	Frazeologik birlik bo‘lishi mumkin
Birdan ortiq negizdan tashkil topadi	Birdan ortiq mustaqil so‘zning o‘zaro grammatik aloqasidan tashkil topadi
Qo‘shma so‘zning komponentlari morfema bo‘ladi	So‘z birikmasining qismlari esa so‘z bo‘ladi
Qo‘shma so‘zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo‘lmaydi	So‘z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo‘ladi
Qo‘shma so‘zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma’no ifodalaydi	So‘z birikmasining qismlari alohida leksik ma’no ifodalaydi
Qo‘shma so‘z qismlari o‘z mustaqilligini (qisman yoki to‘laligicha) yo‘qotadi	So‘z birikmasining qismlari esa o‘z mustaqilligini saqlaydi
Qo‘shma so‘z qismlari yaxlit bir savolga javob bo‘ladi	So‘z birikmasi qismlari alohida savolga javob bo‘ladi va bir gap bo‘lagi vazifasida keladi

Qo‘shma so‘z - kompozitsiya usuli orqali yasalgan birlikdir. Qo‘shma so‘zlar qismlari orasidagi ma’no munosabatlar quyida keltirilgan.

1. O‘xhatish - qiyoslash: tuyaqush, ko‘zoynak, sheryurak, qil ko‘prik, tillaquo‘ng‘iz.
2. Xoslik, biror narsaga mo‘ljallanganlik: qo‘lo‘roq, gultuvak, bilaguzuk.
3. O‘rin-joyga mansublik: suvilon, tog‘echki, tog‘olcha.
4. Belgi, nisbat berish: Qoraqum, Qoradaryo, sho‘rdanak, achchiqtosh, qizilishton.
5. Miqdorga munosabat: qirqayyoq, mingboshi, beshovlon, qirqbo‘g‘in.
6. Karakter va obraz munosabati: beshiktervatar, muzyorar.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv va bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil qilingan birikmaga so‘z birikmasi deyiladi. Masalan, kitobning varog‘i, uy qurmoq, qizil olma, so‘z bilan tushuntirmoq. So‘z birikmasi sintaktik birlik hisoblanadi. So‘z birikmasi sintaksisi gap tarkibidagi grammatik jihatdan bog‘langan so‘zlar guruhini o‘rganadi. So‘z birikmasi mazmun jihatdan birlikni tashkil qilgan va til qoidalariga ko‘ra ajratilgan so‘zlar guruhidir. Lekin har qanday bog‘lanishlar, qo‘silmalar ham so‘z birikmasi predmetini tashkil etavermaydi. Bir-birlari bilan tobelanish munosabatiga kirishgan birdan ortiq leksik birliklarning qo‘silmasi so‘z birikmasidir. [3]

Qo‘shma so‘z va so‘z birikmasi o‘rtasida yaqinlik va farqli jihatlar quyidagilardir.

Dastlab, birlashtiruvchi tomonini tahlilga tortaylik. Qo‘shma so‘zlar ham yasalish jarayonida so‘z birikmalari kabi moslashuv, boshqaruv, biriktiruv aloqalariga kirishadi. Masalan, tuyaquush, Qoraqum, sho‘rdanak, kelinsalom-bitishuv holatini namoyon qiladi. Bu jihat xuddi qizil olma, gulli mato kabi ohang yordamida bog‘langan. Otquloq, gultuvak, bilakuzuk, sheryurak-bu holatda moslashuv aloqasiga yaqinligi katta. Ya’ni otning qulog‘i, gulning tuvagi, bilakning uzugi, sherning yuragi kabi o‘xshatish va qiyoslash orqali moslashuv hodisasi ro‘y bermoqda. Erksevar, kitobsevar, o‘rinbosar kabi misollardan boshqaruvli munosabatni ko‘ramiz.

Farqli jihatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qo‘shma so‘zlar nutqqa doimo tayyor leksik material sifatida foydalanilsa, so‘z birikmasi bundan mustasno bo‘lib, nutq jarayonida, ma’lum qoidalar asosida hosil qilinadi. Masalan,

➤ Qo‘ziqorin-nima? Ot so‘z turkumi.

➤ Qo‘zi qorin alohida-alohida tahlilga olinmaydi.

➤ Ammo so‘z birikmasida bunday xususiyat mavjud emas. Shunday ekan, so‘z birikmasi tarkibidagi komponentlarni alohida-alohida sintaktik tahlil etiladi. Masalan,

➤ Qo‘zining qorni. Aniqlovchi+aniqlanmish.

- Bundan tashqari, qo‘shma so‘zlar tarkibidagi asos qismlar dastlabki ma’nolarini qisman yoki butunlay yo‘qotadi. Ular birgalikda boshqa so‘z turkumiga o‘tadi yoki so‘roq turi o‘zgaradi, ya’ni erk-ot nima? sevar-fe'l nima qilar? va yahlit bitta ma’no anglatadi. Xontaxta deyilganda xonning taxtasi emas, kundalik turmushimizda foydalaniladigan dasturxon yoziladigan predmet tushuniladi.

- So‘z birikmasida alohida-alohida tushuncha anglatadi. Masalan, kitobning varog‘i. Bu yerda har ikkala so‘z o‘z ma’nosini saqlamoqda va har bir so‘z mustaqil so‘roqqa javob bo‘ladi.

Qo‘shma so‘zlar tilning tarixiy taraqqiyot mahsuli sanaladi. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma so‘zlarning yuzaga kelishi, tarkibi va mazmuni haqidagi dastlabki nisbatan mukammal tadqiqot prof. A. G’ulomov tomonidan amalga oshiriligan. “O‘zbek tili grammatikasi” asari so‘z yasalish bo‘limining “Qo‘shma so‘zlar” bandida olim mazkur hodisaning hosil bo‘lishi, tarkibiy qismlari, qo‘shma so‘z komponentlarining o‘zaro grammatik-semantik munosabati, so‘z biikmasi bilan aloqasi, qo‘shma so‘zlarning

paydo bo‘lishida rus tilining ta’siri haqida gapiradi. Qo‘shma so‘z yasash XX asrning II choragidan boshlab keng rivojlanganligini, bu esa jamiyatdagi keskin o‘zgarishlar bilan bog’liqligini ta’kidlaydi. Aytish mumkinki, prof. A. G’ulomovning qo‘shma so‘zlar haqidagi nazariy qarashlari yillar davomida manbalarda deyarli o‘zgarmagan holda o‘tib keldi

A.Hojiyev “Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi” kitobida qo‘shma, juft, takror so‘zlarni alohida- alohida talqin qilish lozimligini ayta turib, qo‘shma so‘zni leksik hodisa deb ta’kidlaydi, juft, takror so‘zlarni esa to‘la ma’noda leksik hodisa bo‘la olmasligini aytadi.

1992-yil nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida qo‘shma so‘zlar bilan bog’liq ikki hodisa kuzatilishi aytildi. Manbada ta’kidlanishicha, qo‘shma

so‘zning ma’nosi bor holatda uning qismlari ma’nosi bilan bog’langan bo‘ladi, shu ma’nolardan rivojlanib chiqadi (chunonchi, asalari, tokqaychi, oqqush), ikkinchi holatda esa qo‘shma so‘zning ma’nosi uning qismlari ma’nosidan qisman yoki butunlay uzoqlashgan bo‘ladi (ko‘kyo’tal, qo‘ziqorin, dunyoqarash), undan boshqa ma’no anglashiladi. [4]

Prof. H.Ne’matov muharrirligi ostida chiqqan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” oliy ta’lim talabalari uchun chiqarilgan darslikning fe’l, ot, sifat, ravish so‘zlar yasalishi bilan bog’liq fikr-mulohazalari bandida mazkur so‘z turkumlarining so‘z

yasalishning kompozitsiya usuliga munosabati tahlilga tortilgan hamda misollar bilan izohlangan.

Umuman, qo‘shma so‘zlar haqidagi nazariy fikrlar ko‘pgina turkiy tillarda umumiylit kasb etadi. Faqatgina yaqin yillarda yaratilgan ayrim manbalarda qo‘shma so‘z va u bilan bog’liq qarash nisbatan o‘zgarganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

A. Hojiyev qo‘shma so‘z bilan yangi so‘z yasalishini rad etadi va shunday

deydi: “O‘zbek tili so‘z yasalishiga oid ishlarning hammasida so‘z yasashning “kompozitsiya usuli” qayd etiladi va u so‘z yasashning mahsuldor usuli sifatida

ta’riflanadi. Biroq hodisaga bevosita o‘zbek tilining o‘z materiallaridan kelib chiqib yondashilsa, bu tilda so‘z yasashning “kompozitsiya usuli” deb atash mumkin va lozim bo‘lgan usuli yo‘qligi ma’lum bo‘ladi”. [5]

“Kompozitsiya” termini, balki qo‘shma so‘z termini mohiyatiga to‘g’ri kelmas, lekin badiiy asar tilida muallif nutqi (individual nutq) ko‘rinishi sifatida anchagini yangi-yangi qo‘shma shakldagi so‘zlar qo‘llanganligi kuzatiladi.

A.Hojiyevning o‘zbek tili so‘z yasalishiga doir nisbatan oldingi tadqiqotida ot va sifatlarning qo‘shma shakl (kompozitsiya usuli) da yasalishiga ko‘ra quyidagicha fikr bildiriladi: “Kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi asos va format kabi komponentga ega bo‘lgan qo‘shma otlarning uch xil tipi bor. Bularda obod, tepa, poya so‘zları format vazifasida qo‘llanadi. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan leksik yasovchi asos va formatdan iborat tuzulmaga ega bo‘lmagan qo‘shma otlar ko‘proq miqdorda.”

So‘z yasalishida muayyan bir qolipga ega va shunday yasalish qolipiga ega bo‘lmagan qo‘shma shakldagi sifatlar haqida ham yuqoridagi kabi fikrlar aytiladi.

Qo‘shma sifatlarning hosil bo‘lishida [kam+ot], [ot+rang], [ot+sifat so‘zi], [ot+bop], [ot+talab], [umum+ot] kabilar ma‘lum bir so‘z yasalish tizimini hosil qilganligi ko‘rinadi. Bu qoliplarning hosilalari sifatida kamchiqim, kamhosil; jigarrang, moshrang, tillarang; darveshsifat, devonasifat; bizbop, qishbop; e’tibortalab, mehrtalab; umumbadiiy, umumxalq kabilar keltiriladi.

Tahlilga tortilgan qoliplar onda-sondagina ayrim sof nutqiy yasama so‘zlar hosil qilmoqda. Bu qatorda kamsement, asfaltrang, baxmalsifat, nuqrasifat, qahvarang kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. [6]

O‘zbek tili lug’at qatlamida qo‘shma shakldagi yangi ravishlarning yuzaga kelishi kuzatilmaydi. Lekin qo‘shma shakldagi sof nutqiy ot va sifatlar yaralyaptiki, bu holat ot va sifatlarning qo‘shma shaklda ham yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, qo‘shma shakldagi yangicha nutqiy yasama ot va nutqiy yasama sifatlarning yasalish qolipini ko‘pincha [ot+ot] tashkil etgan. Asarlarda muallif neologizmlari sifatida qo‘llangan kiyikso‘qmoq, chaqmoqtuyoq, jayronko‘z (M.Yusuf), telfonxat (U.Asim), qunduzqosh (F.Afro‘z), daryodil (M.Toir) kabi so‘zlar qo‘shma ot va sifatlarga misol bo‘la oladi. Ayrim misollarni kuzatamiz:

1. Armonqizning ko‘zi battar suzuklashdi,
She’rim o‘qib kimning holi tuzuklashdi. (B.Fazliddin)
 2. Ayozkotib eng dilbar she’rni
Dog’ yuqtirmay ko‘chirar oqqa (B.Fazliddin)
 3. Sen kelding eritib yillar muzini,
Qarshimda bir olam turar bahorro‘y. (U.Asim)
 4. Ichan qal’a demak – Xorazm faxri,
Bahornaqsh gumbazlar, minor sardoba. (O.Matjon)
 5. Qor – billurtan farishta. (U.Asim)
Odamtoshlar. (Z.Mirzayeva)
 6. Yalpiz hidi tutgan dalalar
Gapga chechan bog’chaxolalar. (M. Yusuf)
 7. Buloqbola bo‘ldim – tiniq nigohi,
Diydamdan o‘tdilar turfa qadamlar. (B.Fazliddin)
 8. Dilbuzar dog’larga keltirsa qiron
Mangulik qo‘shig’in kuylagan qushlar. (B.Fazliddin)
 9. Dilshishang sinmasin, dildosh, shishadosh
Men seni bilmayman, men o‘zim yaxshi. (I.Mirzo)
- Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma otlarning umumiyligi xususiyatlari quyidagilarni tashkil qiladi:
- ingliz tilida qo‘shma ot qismlari orasiga so‘z qo‘shib bo‘lmaydi, o‘zbek tilida ham ushbu holatni kuzatishimiz mumkin;

- ingliz va o‘zbek tillarida asosan ikki o‘zakli qo‘shma otlar mahsuldor hisoblanadi;
- ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma otlar semantik jihatdan yaxlit va idiomatik bo‘lishi mumkin;
- ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma otlarning ikkinchi elementi egalik qo‘shimchasi bilan kelishi mumkin;
- Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma otlarning so‘z turkumlarida qo‘llanishida o‘xhashliklarni kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. G‘ulomov F.G‘. O‘zbek tilida so‘z yasashning yo‘llari haqida. – T, 1949. – B.37.
2. Yuldasheva N.E. Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma otlarning funksional-pragmatik tadqiqi.. Filol. fan. doktor. diss. – Toshkent 2021, – B 29
3. Uzbek tili grammatikasi. Sintaksis II tom – Toshkent “Fan” nashriyoti, 1976, – B.18
4. Hojiev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992, – B.45
5. Hojiev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takror so‘zlar. – T.: Fan, 1963, – B.26.
6. https://fayllar.org/pars_docs/refs/1233/1232557/1232557.pdf